



*Muhammad Aminxo'ja
Muqimiy*

**HAYOTI VA IJODINI
O'RGANISH BO'YICHA**

*Dastur va uslubiy
qo'llanma*

“IQTISODIYOT”

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Muhammad Aminxo'ja

Muqimiy

HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BO'YICHA
Dastur va uslubiy qo'llanma

Toshkent – "IQTISODIYOT" – 2021

Mazkur dastur va uslubiy qo'llanma ma'rifatparvar, lirik va satirik shoir Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun ishlab chiqildi.

Dasturda Muqimiy hayoti va ijodi, asarlari manbasiga doir barcha ma'lumotlar qamrab olindi. Dastur tarkibida Muqimiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar nazariy va birlamchi manbalar asosida yoritildi. Muqimiy adabiy-estetik tafakkuri, badiiy mahorati va ilgari surgan g'oyalarni talaba-yoshlarga sodda va tushunarli qilib yetkazish maqsad qilindi.

Mazkur dastur va uslubiy qo'llanma Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori,
professor

Tuzuvchi:

Qo'ldosh Pardayev,
filologiya fanlari doktori,
dotsent

Taqrizchilar:

Shahlo Xojieva,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Adiba Davlatova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Mazkur uslubiy qo'llanma Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
Kengashining 2020-yil 21-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida
muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

I. KIRISH

Muhammad Amix'o'ja Muqimiy hayoti va ijodini o'qitish bo'yicha dastur oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan. Unda mazkur kursning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo'lib, Muqimiy hayot yo'li, ijodiy merosi, lirikasi, hajviyoti, muvashshah-g'azallari, ta'rixlari va ijodi manbalariga doir ma'lumotlar yoritilgan. Ularni talabalar ongiga singdirish dasturda qayd etilgan mavzular bo'yicha o'tiladigan turkum mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi.

II. FAKULTATIV O'QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug' ajdodlarimiz bosib o'tgan hayot yo'lini o'rnak sifatida ko'rsatish, Muqimiy hayot yo'li va ijodiy merosini o'rganishning dolzarbligini tushuntirish, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti ijodkorlarining milliy g'oya targ'ibotidagi o'rnini birgina Muqimiy faoliyati misolida ochib berish, Muqimiyning bugungi milliy ma'naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o'rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

III. FAKULTATIV O'QUV KURSINING VAZIFALARI

– XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Muqimiyning tutgan o'rne va mavqeyini ochib berish;

– Muqimiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni birlamchi manbalar asosida xolisona yoritib berish;

– Muqimiy ijodiga doir ma'lumotlarni va ularning o'rganilishini muqimiyshunos olimlar tadqiqotlari asosida ochib berish;

– shoir lirik merosining janrlar ko'lemi va badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini ochib berish;

– Muqimiy hajviy asarlarida qalamga olingan jamiyat tanqidi, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga shoir munosabatini ko‘rsatib berish;

– ijodkor “Sayohatnoma”larida tasvirlangan ona-Vatan tabiati, xalqning yashash tarzi, amaldorlar fel-atvori singari masalalarni talabalar ongiga singdirish.

– Muqimiy hayoti va ijodiy merosini o‘rganishda muhim ahamiyatga molik bo‘lgan shoir dastxat bayozlarini tahlil qilish;

– Muqimiy ijodining sho‘rolar davridagi noxolis, biryoqlama talqinlarini tushuntirish;

– Muqimiy hayot yo‘li va faoliyatidagi xalqchillik, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma‘rifatparvarlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarining ma‘naviy-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi o‘rnini tushuntirish.

IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

– O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyotining, xususan, Muqimiy adabiy merosining bugungi milliy mafkuramiz bilan hamohang jihatlarini tushunib yetishlari;

– Muqimiy hayoti va ijodi haqida bilimga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirgan bilimlarni to‘g‘ri anglashi;

– shoir lirik merosining janrlari va badiiy-g‘oyaviy xususiyatlarini o‘zlashtirish;

– ijodkor “Sayohatnoma”laridagi ona-Vatan tabiati haqidagi bandlardan yod olishi;

– Muqimiy dastxatida yozilgan she‘riy asarlarni tahlil qilish va shoir adabiy-estetik tafakkurini o‘rganish;

– shoirlar hajviy asarlarida ko‘tarilgan masalalarning bugungi kun uchun ham nihoyatda zarurligini tushinib etish;

– Muqimiy ijodining sho‘rolar davridagi biryoqlama talqinlarini o‘rganish va ularni mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan talqin qilishi.

V. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.

VI. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI

Fakultativ o‘quv kursining hajmi:

No	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
1	Ma’ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	JAMI:	20

Mashg‘ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

Mavzular	Mazmuni	Kutiladigan natija	soat	
MA'RUZALAR			8	
1	Muqimiy hayoti va ijodining o'rganilishi	Muqimiy hayoti va ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangani. Jumladan, "Turkiston viloyatining gazetisi" (1891-1903-1907 yilgi sonlari)da shoirning lirik va hajviy she'rlari chop etilishi. XX asrning 30-yillarida shoir adabiy merosiga doir tadqiqotlar. XX asrning 50-yillaridan so'ng Muqimiy hayoti va ijodiga munosabatlar. Sho'ro davri muqimiyshunosligida shoir ijodi turli xil bahs-munozaralarga sabab bo'lgani. Ammo bularning barchasida Muqimiy ijodi sho'ro davri mafkurasiga ko'ra biryoqlama talqin etilishi. Professor G.Kari-movning 1962-yili yoqlangan "O'zbek de-mokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti" mavzuidagi doktorlik disser-tatsiyasi muqimiyshunoslikda alohida o'rin tutishi. Istiqlo'l yillarida ham Muqimiy ijodiy merosi ustida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ayniqsa, shoir asarlarining sovet davridagi nashrlariga kiritilmagan ayrim she'rlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola etilishi. Bu jihatdan Q.Pardaevning "Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini" mavzusidagi monografiyasining nashr etilishi kabi masalalar haqida ma'lumot beriladi.	Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti haqida Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodi misolida tushuncha hosil qiladilar, XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Muqimiy hayoti va ijodi haqida tadqiqotlarni o'rganish. Muqimiy merosini mustaqillik mafkurasiga mezonlari asosida qayta baholash, Muqimiyning davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga munosabatini, ijodkor sifatidagi tutumini belgilash nechog'lik dolzarb vazifalardan ekanligi haqida xulosa chiqarish ko'nikmalari hosil bo'ladi.	2
2	Muqimiyning hayot yo'li	Muhammad Aminxo'ja Muqimiy 1850-yilda Qo'qonda Bekvachcha mahallasida tug'ilgan. Otasi 1836 yilda Qo'qonga ko'chib borib o'rnatilgan qolgan toshkentlik Mirzaxo'ja Mirfozil bo'lib, asli kasbi novvoychilik bo'lgani. Onasi Bibioysa asli xo'jandlik bo'lgani. Muqimiyning bolalik va tahsil yillari. Shoir-	Shoirning bolalik yillaridagi faoliyatini, Oilaviy muhiti, Muqimiyning Qo'qon va Buxoro madrasalarida tahsil olishi, Muqimiyning Toshkent safari, u yerdagi faoliyati, Ijodkorning salafiri ijodiga munosabati, ular g'azallariga taxmis va	2

~ 6 ~

		ning oilaviy muhiti. Ijodkorning davlat idoralariidagi ishlari. Muqimiyning Toshkent safari haqida ma'lumotlar beriladi.	naziralar qilishi kabi masalalarni anglab yetadilar.	
3	Muqimiy ijodiy merosi	Muqimiy ijodiy merosi 11 ming misraga yaqinligi. Ular asosan lirika va hajviyotdan iborat ekanligi. Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi bo'lganligi. Ko'plab zamondoshlari singari o'zbek va tojik tilida baravar she'rlar yoza olgan. Muqimiy ijodiy merosining: Lirika (g'azal, muxammas, murabba', masnaviy, ruboiy, fard). Hajviyot (satira, yumor). Sayohatnomalar (uch qismdan iborat). Mak-tublar (sheriyy va nasriy shaklda) - tarzida tavsiflanishi. Shoirning "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur", "Bachchag'ar" radifli satirasi, "Sayohatnoma"lar yangicha, mustaqillik mafkurasini tamoyillari asosida talqin qilinadi	Muqimiy lirikasi badiiyati, asarlari janrlari va mavzular ko'lamini, hajviy she'rlaridagi ijtimoiy-siyosiy davr voqelik tasviri, shoirning do'stlariga yozishmalari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Muqimiyning 18 ta nasriy va 9 she'riy maktubi mavjudligi sho'rolar davridagi Muqimiy asarlari nashrlarida "Sayohatnoma"dagi mis-ra: "Yurt barcha norozi dedi, Qilg'on ishi ozor ekan". Birlamchi manbada esa "Yurti hama rozi dedi, Bechora beozor ekan". - tarzida berilishi. "Sayohatnoma"ning yana bir bandi ham tahrir qilingani. Tahrir natijasida "bir donish" so'zi "bedonish"ga, "bekor" so'zi badkor"ga aylangani kabi masalalarni tushunib yetadilar.	2
4	Muqimiy ijodi manbalari	Muqimiy adabiy merosi uchraydigan 39 ta qo'lyozma, 14 ta toshbosma majmua va bayozlar, uchta arxivdagi, bitta vaqtli matbuot, bitta to'plam hamda Po'latjon Qayyumov asarlaridagi materiallar qiyosiy tahlil qilinishi. Ular orasidan shoirning 5 ta dastxat bayoz va shoir dastxati uchraydigan uchta qo'lyozma majmuaga doir ma'lumotlar o'rganilgan. Mazkur manbalardan Muqimiyning hanuzgacha ilmiy jamoatchilikka ma'lum	Shoir ijodi manbalari tasnifi. Muqimiyning dastxat bayozlari. Shoir ijodining qo'lyozma va toshbosma manbalari. Jumladan, Muqimiyning 7521 raqamli dastxat bayozida 228 ta sheriyy asardan 208 tasi Muqimiy qalamiga mansub bo'lib, shundan, 154 ta g'azal (9 tasi yangi), 36 mu-xammas (1 tasi yangi, 4 ta hajviy), 8 murabba', 4 ta'rix, 1 ta masnaviy, 4 she'riy maktub va	2

~ 7 ~

		bo'lmagan 13 ta g'azal, 3 ta muxammas janridagi she'rlari (194 misra) talqin qilinadi.	"Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Isfaraga" qismi berilganligi haqida ko'nikmaga ega bo'ladilar.		
SUHBAT-MULOQOTLAR					
1	Muqimiy muvashshahlari	Muvashshah haqida nazariy ma'lumot berish. Shoirning muvashshah – g'azallari muqimiy-shunoslikda deyarli o'rganilmagani. Shu bois ularni o'rganish Muqimiy adabiy-estetik olamini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Muqimiy ijodiy merosida 75 ta muvashshah-g'azal mavjudligi aniqlangani. Muqimiyning "Sog'inib" radifli "Mehri ruxsoring'a, jono, zordurman sog'inib", "Mehri ruxsoring ko'rarga zordurmiz sog'inib" kabi g'azallari adabiyot ahliga ma'lumligi. Shoirning jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan xuddi shu radifdagi "Orazu xoling ko'rarga zorduran sog'inib" deb boshlanuvchi 7 baytli g'azali Oysoxon nomiga bitilgan muvashshah ekanligi. Bu muvashshah-g'azalda har baytning toq misrasidagi Oysoxon ismiga ishora qilingan harflar yig'indisi. Shu kabi shoirning muvashshah – g'azallari tahlil qilinadi.	Shoir muvashshah – g'azallari. Muvashshahlarda kishi ismlarining berilishi. Muqimiyning adabiy davrasini, yaqin do'stlari kimlar bo'lganini o'rganishda muvashshah-g'azallar katta ahamiyatga egaligi. Shoir muvashshahlarida ismi keltirilgan shaxslar Muqimiy hayotida alohida o'rin tutgani. Bu kishilar ismi Furqat, Zavqiy, Muhyi va Haziniy muvashshah-g'azallarida ham ko'p uchrashi. Muqimiyning Asrorxon, Yusufxon, Qo'zixon, Usmonjon, Muhammadjon, Komilxon, Tillaxon, Mullajon, Nazirxon, Namozxon, Solihjon, Jabborxon, Hoshimjon, Norsaxon, Adolxon, Siddiqjon, Mansurxon, Abdullaxon, Nizomxon, Sultonxon, Qurbonxon, Qosimjon, Akbarxon, Toshpo'latxon singari yaqinlari nomiga bitgan muvashshah-g'azallarini tahlil qilish ko'nikmalari paydo bo'ladi.	4	2
2	Muqimiy ta'rixlari	XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodidagi ta'rixlar ham muayyan darajada davr tarixiy voqealariga oydinlik kiritishi bilan qimmatligi. Muqimiy adabiy merosidagi ta'rixlar muhim ahamiyatga molik ekanligi. Shoirning turli xil voqealarga bag'ishlab yozilgan ta'rix-larini quyida-	Muqimiy ijodidagi ta'rixlarning mavzu ko'lami haqida, ta'rix janrining o'ziga xos xususiyatlari, Muqimiy ta'rixlari tasnifi va tahlili asosida ularda davr voqelari tasviri haqida tasavvurga ega bo'ladi. Muqimiyning "Tarixi zilzilai		2

		gicha: "kishilar vafoti munosabati bilan yozilgan ta'rixlar"; "bino va imoratlar qurilishiga bag'ishlangan ta'rixlar"; "ijtimoiy-siyosiy voqealarga doir ta'rixlar" tarzda guruhlashtirish mumkinligi. Jumladan, <i>Bino va imoratlar qurilishiga bag'ishlangan ta'rixlar</i> . Jumladan, Toshkent shahrining Darxon mahallasida istiqomat qilgan Mirzo Ubaydullaboy degan kishi bir g'ishtlik masjid qurib, unga Muqimiydan ta'rix yozib berishni iltimos qilgani. She'rning to'rtinchi misrasida keluvchi "Ibodatxonai oliy" jumlasini ta'rix muddasi bo'lib, undan abjad hisobida 1318 hijriy sanasi kelib chiqishi. Uni milodiy hisobga aylantirsak, 1900-yil hosil bo'lishi. Xuddi shunday Muqimiyning ko'plab ta'rixlari xususida tahliliy fikrlar bayon etiladi.	Andijon az Mavlono Muqimiy Xo'qandiy" sarlavhali g'azaliga ta'rix tushirilgani. She'r oxirgi baytidagi "darig' Andijon" jumlasini ta'rix muddasi bo'lib, uning abjad hisobidagi qiymati 1323 ga tengligi. Baytning birinchi misrasidagi ishoraga ko'ra, "jon" so'zining "bosh", ya'ni "jim" harfining qiymati 3 raqami chiqarib tashlansa, 1320-hijriy yili hosil bo'lishi. Milodiy hisobda esa 1902-yilga to'g'ri keladi. Demak, Andijon shahridagi dahshatli zilzila 1902-yilda ro'y bergani. Xuddi shu tipdagi ta'rixlarni o'rganish malakasi paydo bo'ladi.		
MUNOZARALAR					
1	Muqimiy maktublari	Muqimiyning 18 ta nasriy va 9 she'riy maktubi mavjudligi. Muqimiyning she'riy va nasriy yozishmalari. Muqimiy ijodini o'rganishda shoir maktublari ham alohida ahamiyat kasb etishi. Ularda davr ziddiyatining, shoir ruhiyatining aks etishi. Ular o'z davri ijtimoiy masalalarini aks ettirgan asarlar ekanligi. Muqimiyning yangi aniqlangan maktublari tahlili. Maktublarda tilga olingan Zuhur hoji, Sayyid Usmon qozi, Abdumo'min, Abdujabbor, Azimjon, Mirza Umar, Mirsalim singari kishilar Muqimiyning do'stlari va yaqin kishilari bo'lgani. Bular ismi shoirning boshqa asarlarida ham ko'p uchrashi to'g'risida ma'lumot berib boriladi.	Muqimiy – Furqat, Muqimiy – Zavqiy, Muqimiy – Nodim, Muqimiy – Almai va boshqa ijodkorlar o'rtasidagi she'riy yozishmalar. Ularda shoir ruhiyatining aks etishi. Maktublarning badiiy xususiyati, ularning qo'lyozmalari, saqlanish manzili, Shoirning yangi aniqlangan fors-tojik tili-dagi maktublari tahlili. Nasriy maktublarda do'stlariga munosabati singari bilimlarga ega bo'lishadi.	4	2

2	Muqimiy va Navoiy	Muqimiy yoshligidanoq Alisher Navoiy ijodini katta hurmat va muhabbat bilan o'rganishi, she'riyatidan ilhomlandi, ko'plab g'azallariga naziralar bitgani, taxmislar bog'lashi. U Navoiyning yetti g'azaliga taxmis yozib, betakror badiiyat va teran fikrlar bilan yo'g'rilgan muxammaslar yaratgani. Bular shunchaki an'ana mahsuli emas, balki Navoiy asarlari mazmun-mohiyati, poetik mukammalligi hamisha Muqimiyni rom etib kelgani, Muqimiy Navoiyning "Gul" radifli g'azaliga ergashib, oshiqona mavzuda ko'plab g'azal bitgani, Muqimiy Navoiyning hajviy asarlaridan han ta'sirlangani kabi masalalar haqida fikrlar bildiriladi.	Muqimiy Navoiyning "Yondurub olamni, chiq, ey, otashinruksor gul" misrasi bilan boshlanuvchi o'n baytli, "Bo'ldi gul" radifli g'azallariga bog'langan muxammaslari tahlili. Muqimiy hajviy asarlarida ham Navoiy poetik an'alaridan mahorat bilan foydalangani, masalan, Navoiyning "Hayratu-l-abror" dostoni bilan Muqimiyning "Tanobchilar" hajviyasini qiyosiy tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.	2
TAQDIMOT				4
1	Muqimiy "Sayohatnoma"lari	O'zbek she'riyatida sayohatnoma janrining shakllanishi Muqimiy ijodi bilan bog'liq, deb talqin etilishi. Bir xil ruh, bir xil tematika va mushtarak badiiy xususiyatlar bilan xarakterlanadigan sayohatnoma janriga Muqimiy asos solgani, sayohatnomalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: a) ular to'rtliklar sistemasida, o'ziga xos qo'fiya usulida (a-a-a-s, b-b-b-s, v-v-v-s kabi) yozilgan; b) har bandining oxirgi - to'rtinchi misrasida "ekan" so'zi radif o'rnida kelgan; v) aruzning rajazi musammami solim (mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun) vaznida bitilgani. Muqimiy Farg'ona vodiysi bo'ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she'r qilib yozdi va bular "Sayohatnoma" nomi bilan shuhrat topgani. Bular shoirning Qo'qon - Farg'ona, Qo'qon -	"Sayohatnoma"larning taxminan 1890 yil atroflarida yozilgani hisobga olinsa, uning qanday og'ir sharoitda yaratilgani. Muallif kayfiyati, holati, atrof-muhitga, kishilarga munosabati "Sayohatnoma" satrlarida ayon sezilib turishi. Masalan, shoir Shohimardon tomon yo'l olar ekan, Ultarma, Do'rmoncha, Bo'rbaliq, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon, Vodil qishloqlari bilan tanishtirishi. Ularning har birini ta'rif-tavsif etgani. Xuddi shuningdek, keyingi sayohat-nomasida Qudash, Yaypan, Nursux, Beshariq, Konibodom kabi qishloq va shaharlar bilan bog'liq tafsilotlar	2

		Shohimardon, Qo'qon-Isfara sayohatlari taassurotlari ekanligi. "Sayohatnoma"lar jami: 77 band, 308 misra ekanligi asoslab beriladi.	berilgani. Shoir soyasalqinga ko'milgan Rapqonni, tolzorlari kishini mah-liyo qiladigan Yaypanni zavq-shavq bilan maqtashi. "Sayohatnoma"larda amaldorlarning fel-atvorining tasvirlanishi kabi masalalarni anglab yetadi.	
2	Muqimiy hajviyalari	XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomirotgan takabbur, poraxo'r tanobchilarning, tovlamachi, yulg'ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratishi. U o'z she'rlaridan birini "Tanobchilar" deb atashi. Chor hukumati Turkistonda saylovni joriy etgani. Yuzboshi, mingboshi, qozilarning saylanishi. Lekin bu saylov poraxo'rlikka yo'l ochgani. Badavlat kishilarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketishi. Muqimiyning "Saylov" she'ri shu haqda ekanligi. "To'yi Iqonbachcha" hajviyasida bir to'y hangomasining tasvirlanishi ta'kidlab o'tiladi.	Sho'rolar davrida Muqimiyning "Bachchag'ar" radifli satirasiga "Hajvi Xalifai Mingtepa" deb sarlavha qo'yilib, o'z mohiyatidan uzoqlashtirilishi. Hajviy she'rni Dukchi eshon voqyeasiga bog'lab talqin etilgani. Qo'lyozma manbalar tadqiqidan ma'lum bo'ladiki, she'r Dukchi eshon voqyeasidan o'n yil oldin Hazrat madrasasining mutavallisi Muhammad Musoboyga bag'ishlab yozilgani. Bu esa, o'z navbatida, mavjud talqinlarning xato va biryoqlama bo'lganini ko'rsatishi. Ijodkor-ning "Qurbaqalar", "Hajvi Bektur" hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandleri qayta tiklanishi singari masalalarni anglab yetadi.	2

VII. “MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIIY HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING O‘QUV-USLUBIIY TA‘MINOTI

“MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIIY HAYOTI VA IJODI” KURSINING SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi					
OTMning nomi va joylashgan manzili:					
Kafedra:	O‘zbek tili va adabiyoti				
Ta‘lim sohasi va yo‘nalishi:					
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma‘lumot:	e-mail:				
Dars vaqti va joyi:	Kursning davomiyligi:				
Individual grafik asosida ishlash vaqti:					
Fanga ajratilgan Soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta‘lim:	30
	Ma‘ruza:	8	Semina r		
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.				
Fanning mazmuni					
Kursning maqsad va vazifasi:	Talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Muqimiy hayot yo‘li va ijodiy merosini o‘rganishning dolzarbligini tushuntirish, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ijodkorlarining milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rnini birgina Muqimiy faoliyati				

	<p>misolida ochib berish, Muqimiyning bugungi milliy ma'naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o'rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Muqimiyning tutgan o'rne va mavqeyini ochib berish; - Muqimiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni birlamchi manbalar asosida xolisona yoritib berish; - Muqimiy ijodiga doir ma'lumotlarni va ularning o'rganilishini muqimiyshunos olimlar tadqiqotlari asosida ochib berish; - shoir lirik merosining janrlar ko'lemi va badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini ochib berish; - Muqimiy hajviy asarlarida qalamga olingan jamiyat tanqidi, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga shoir munosabatini ko'rsatib berish; - ijodkor "Sayohatnoma"larida tasvirlangan onavatan tabiati, xalqning yashash tarzi, amaldorlar felatvori singari masalalarni talabalar ongiga singdirish. -Muqimiy hayoti va ijodiy merosini o'rganishda muhim ahamiyatga molik bo'lgan shoir dastxat bayozlarini tahlil qilish; -Muqimiy ijodining sho'rolar davridagi noxolis, biryoqlama talqinlarini tushuntirish; -Muqimiy hayot yo'li va faoliyatidagi xalqchillik, sadoqat, mardlik, fidoyilik, ma'rifatparvarlik, rostgo'ylik kabi fazilatlarining ma'naviy-axloqiy mohiyati va bugungi kun yoshlari kamolotidagi o'rnini tushuntirish.
<p>Talabalar uchun talablar</p>	<p>Fakultativ kursni o'zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti mohiyati; - Muqimiyning hayoti va ijodi; - yangi o'zbek adabiyotining shakllanishiga xos xususiyatlari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; - Muqimiy yashagan davr Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari; - Muqimiyning adabiy maktab tashkil etishi ; - Muqimiy hayot yo'li;

	<ul style="list-style-type: none"> - Muqimiy ijodiy merosi; - yangi adabiyotning shakllanishida Muqimiy ijodining tutgan o'rnini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini tushuntira bilish; - milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti vakillarining hayoti va ijodini o'rganilish darajasini tahlil qila olish; - adabiyotning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish; - milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti shakllanishiga sabab omillarni izohlay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Sillabus taqvim:
O'tiladigan mavzular ro'yxati

№	Mavzular	Ma'ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Muqimiy hayoti va ijodining o'rganilishi	2 soat			
2	Muqimiyning hayot yo'li	2 soat			
3	Muqimiy ijodiy merosi	2 soat			
4	Muqimiy ijodi manbalari	2 soat			
5	Muqimiy muvashshahlari		2 soat		
6	Muqimiy ta'rixlari		2 soat		
7	Muqimiy maktublari			2 soat	
8	Muqimiy va Navoiy			2 soat	
9	Muqimiy "Sayohatnoma"lari				2 soat
10	Muqimiy hajviyalari				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat

Asosiy adabiyotlar:	<p>1. Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti darsligi. (B.Qosimov, U.Dolimov, Sh.Yusupov, S.Ahmedov, N.Jabborov, Sh.Rizaev). – T.: Maʼnaviyat, 2004. -B.458.</p> <p>2. Pardayev Q. Muqimiy sheʼriyati: matn tarixi, tahriri va talqini. (Monografiya). –T.: Muharrir, 2019.-B. 220.</p> <p>3. Karimov Gʻ. Muqimiy hayoti va ijodi. (Monografiya). – T.: Adabiyot va sanʼat, 1970. -B. 213.</p>
Qoʻshimcha adabiyotlar:	<p>1. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. Uch jildlik. – T.: Qoʻlyozmalar instituti, 1998. -B. 560.</p> <p>2. Muqimiy. Asarlar toʻplami. (Nashrga tayyorlovchi: Gʻ.Karimov). – T.: Oʻzbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, I tom, 1960.-B. 375.</p> <p>3. Muqimiy. Asarlar toʻplami. (Nashrga tayyorlovchi: Gʻ.Karimov). – T.: Oʻzbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, II tom, 1960.-B. 192.</p> <p>4. Madaminov A. Yangi bayoz. –T.: Fan, 1997.-B. 98.</p> <p>5. Muqimiy. Bogʻ Aro. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi: A.Turdialiev). T.: Akademnashr, 2010.-B. 312.</p> <p>6. Abdugʻafurov A. Muqimiy satirasi. – T.: Fan, 1976. -B. 120.</p> <p>7. Biz bilmagan Muqimiy. (Yangi aniqlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: Pardayev Q). –T.: Muharrir, 2019. -B. 136.</p> <p>8. Muqimiy. Koʻnglum sandadur. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: E.Ochilov). – T.: Sharq, 2009.-B. 272.</p> <p>9. Moʻminov I. Oʻzbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. – T.: Oʻz FA, 1960. -B.289.</p>

	<p>10. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar (To'plovchi G'.Karimov). T.: Badiiy adabiyot, 1958.-B. 151.</p> <p>11. Qayumov A. She'riyat jilolari. – T.: O'qituvchi, 1997. -B. 125.</p> <p>12. Yoqubov H. O'zbek demokrat shoiri Muqimiy. – T.: O'zFan, 1953. -B. 134.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti	<p>1. www.ziyonet.uz</p> <p>2. www.e-tarix.uz</p> <p>3. www.ziyouz.com</p> <p>4. www.alisher navoiy.uz</p> <p>5. www.literature.uz</p> <p>6. www.kutubxona.uz</p>

“MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY HAYOTI VA IJODI” KURSINI O‘QITISHNING MA‘RUZA TEXNOLOGIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni ___ nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Muammoli ma‘ruza
Ma‘ruza mashg‘ulotining rejasi	
<p>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Muqimiy hayot yo‘li va ijodiy merosini o‘rganishning dolzarbligini tushuntirish, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ijodkorlarining milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rnini birgina Muqimiy faoliyati misolida ochib berish, Muqimiyning bugungi milliy ma‘naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Muqimiy hayot yo‘li bilan tanishtirish; - Muqimiy ijodiy merosi va ularning janr, mavzu ko‘lami bilan tanishtirish; 	<p>O‘quv faoliyatining natijalari.</p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Muqimiy hayoti, ijodi haqida ko‘nikma va bilimga ega bo‘ladi; - shoir she‘riy asarlarining badiiy-g‘oyaviy xususiyatini o‘zlashtiradi va izohlaydi; - Muqimiy lirikasi manbalarini tasniflaydi va tahlil qiladi.

- milliy adabiyotimiz rivojida Muqimiy adabiy merosining tutgan o'rnini ko'rsatib berish;	
O'qitish uslubi va texnikasi	Visual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "BBB" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
O'qitish shakli	Jamoa va guruh bo'lib ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Elektron doska bilan jihozlangan xona

MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. 10 daqiqa	O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg'ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta'limiy faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa	Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Tipologiya tushunchsi bilan tanishtiradi. Umumiy tipologik metodni tavsiflaydi. Tillarni geneologik guruhlash qonun-larini tushuntiradi. Morfologik tipologoya usullarini izohlaydi.	Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talaba-larda ta'limiy faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatlari to'g'ri rejalashtiriladi.

	<p>(ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi). Ma'ruzani bayon qilish davomida interfaol o'qitish usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.</p>	<p>Ularda ta'limiy maqsadlar asosida hamkorlikda ishlash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuzasi-dan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faolla-shadi. Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatilik kabi kasbiy sifat-lar shakllanadi. Refleksiya bosqi-chida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savol-lar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.</p>
<p>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</p>	<p>Talabalar tomonidan ma'ruza-da keltirilgan o'quv axboroti-ning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzu-ga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.</p>	<p>Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.</p>
<p>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</p>	<p>Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.</p>	<p>Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.</p>

VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR

O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ta'lim tizimida interfaol ta'lim texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:

ASOSIY SHAKLLAR

Ijodiy topshiriqni bajarish

Test o'tkazish

Masofaviy ta'lim

Muammoli vaziyatlarni hal qilish

Didaktik o'yinlar (ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, imitatsiya, trenajyorlar vositasida tashkil etiladigan o'yinlar)

Ijtimoiy zahiralardan foydalanish (mutaxassislarni taklif etish, tabiiy va ijtimoiy ob'ektlarga ekskursiyalar uyushtirish)

Kichik guruhlarda ishlash

Qaytar aloqa

“Chigal yozdi” mashqlarini tashkil

Treninglar o'tkazish

Ijtimoiy loyiha (musobaqa, intervyu, forum, aktsiya, tomosha va ko'rgazma)larni amalga oshirish

Yangi materialni o'rganish va mustahkamlash (interfaol ma'ruza, ko'rsatmali qurollar bilan ishlash)

Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

“**Interfaol**” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter”– o'zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim hisoblanadi.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An'anaviy ta'limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida o'quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

Interfaol ta'limning asosiy belgilari

ASOSIY BELGILAR

<u>Ko'p fikrliklik</u>	<u>Suhbat (dialog)</u>
<u>Fikrlashga asoslangan faoliyat</u>	<u>G'oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi)</u>
<u>Tanlash imkoniyatining mavjudligi</u>	<u>Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish</u>

Refleksiya

Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va boshalar.

2. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galeriya", "Zigzag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

3. Grafik organayzerlar: "Baliq sekleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va boshqalar.

Keyingi yillarda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosiy o'rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi. Ushbu ta'lim pedagog va magistrant o'rtasidagi o'zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e'tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi: 1. Modulli ta'lim texnologiyasi. 2. Muammoli ta'lim texnologiyasi. 3. Interfaol ta'lim texnologiyasi. 4. Individual ta'lim texnologiyasi. 5. Masofaviy ta'lim texnologiyasi. 6. Kompyuter ta'lim texnologiyasi. 7. Hamkorlik ta'lim texnologiyasi. 8. Loyiha ta'lim texnologiyasi. 9. Dasturiy ta'lim texnologiyasi. 10. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi. 11. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. 12. O'yin texnologiyalari. 13. Gender ta'lim texnologiyasi. 14. Quvvatni tejoyvchi ta'lim texnologiyasi.

Mazkur ta'lim texnologiyalaridan *modulli ta'lim, muammoli ta'lim va interfaol ta'lim texnologiyalarini* faol qo'llash tavsiya qilinadi.

Ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys** stadi hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo'llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta'lim samaradorligini oshirishi e'tirof etilmoqda.

Keys-stadi – (inglizcha *case* – to'plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan haqiqiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o'qitish metodi.

Keys-stadi usuli qo'llanilgan o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi Ishlar bosqichi va mazmuni

Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg'ulotlarda arqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasi bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojla nishiga ta'sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushunchalari bo'yicha tezkor-so'rov o'tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg'ulotda ishlash tartibi, baholash ko'rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich.	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash	Keys materiallari-ni

<p>Alohida Ishlash. (20 daq.)</p>	<p>qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e'tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo'lla-rini aniqlashni, so'ngra uni yechish topshirig'ini beradi</p>	<p>muhokama qiladilar, aniqlay-dilar, savollar be-radilar. Mustaqil ravishda tahlil qi-lish varag'ini to'l-diradilar, muam-moni yechadilar.</p>
<p>4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)</p>	<p>4.1. Talabalarni kichik guruhlar-ga bo'ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko'rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag'ini to'ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish</p>	<p>Keysni yechish va taqdimot varag'ini tayyorlash bo'yi-cha harakatlar qi-ladilar</p>
<p>5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)</p>	<p>5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o'zaro baholashni tashkil-lashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e'tibor qaratadi.</p>	<p>Guruhlar taqdimot qiladilar. Boshqa talabalar munoza-rada ishtirok eta-dilar, savollar be-radilar</p>

KONSEPTUAL JADVAL

O'rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o'rgatish, muammoni tahlil qilish, ma'lumotlarni tuzulmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo'nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so'z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontaal bo'yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo'yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jihat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o'zlashtirilayotgan o'quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo'yicha konseptual jadvallarni mikroguruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg'ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o'tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig'ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarining mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Fakultativ o'quv kursini o'qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin. Shuningdek, o'qitishning **an'anaviy va ilg'or usullarini, shuningdek, o'qitishning an'anaviy va ilg'or uslublarini, jumladan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, dasturiy o'qitish, davra suhbatlarini o'tkazish, muammoli o'qitish texnik vositalarini qo'llash, ekskursiya** va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlari ma'ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo'llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o'quv kursini zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

– “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Reynstorming”, “Klaster” (axborotni yig‘ish), “Sinkveyn” (axborotni yig‘ish, “Akvarium”, “Charxpalak”, “Gyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish.

– Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta’minlashga erishish.

– Talabalarning kichik guruhlariga bo‘lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o‘rgatish.

– ma’ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma’lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o‘qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).

– Test savollari tuzish.

– “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o‘zlashtirishda ko‘maklashish.

– talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko‘rgazmali ma’ruza qilishga o‘rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

MUSTAQIL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISH

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o‘quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– tarqatma materiallar bo‘yicha fakultativ o‘quv kurs mavzularni o‘zlashtirish. Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

– O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.

– O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzluksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimini o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.

– Fakultativ o‘quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishlash hamda ularni o‘rganish;

– Talabalarning mustaqil ta‘lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o‘quv kursining muayyan mavzularni chuqur o‘rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.

– Internet materiallari.

– Audio manbalar.

– Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.

– Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya‘ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimiy rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

– fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish;

– internet materiallarini topish va unumli foydalanish;

– audivizual manbalardan foydalanish;

– axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI

1. Muqimiyning hayot yo'li.
2. Shoir ijodining o'rganilishi.
3. Shoir adabiy merosi.
4. Ijodkor lirikasi.
5. Muqimiy hajviyoti.
6. Shoir maktublari.
7. Muqimiyning tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlari tahlili.
8. Ijodkor "Sayohatnoma"lari.
9. "Sayohatnoma"larda amaldorlar fel-atvori.
10. Ijodkor muvashshahlari.
11. Muqimiy ta'rixlari.
12. Ijodkorning Toshkentdagi faoliyati.
13. Shoir lirikasi manbalari.
14. Muqimiy adabiy davrasi.
15. Muqimiy davrasida turkum poetik she'rlar.
16. Shoir ijodining mustaqillik davrida o'rganilishi.
17. Muqimiy lirikasida ishq talqini.
18. Shoir asarlari matniga doir tadqiqotlar.
19. Muqimiyning yangi topilgan asarlari talqini.
20. Shoir dunyoqarashi va adabiy-estetik tafakkuri.

VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

MA'RUZALAR

Birinchi mashg'ulot: Muqimiy hayoti va ijodining o'rganilishi.

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni Muxammad Aminxo'ja Muqimiy ijodining o'rganilishi bilan aloqador eng muhim va asosli ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Qo'qon adabiy muhiti. Muqimiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan

boshlangani. Jumladan, “Turkiston viloyatining gazetisi” (1891-1903-1907-yilgi sonlari)da shoirning lirik va hajviy she’rlari chop etilishi. XX asrning 30-yillarida shoir adabiy merosiga doir tadqiqotlar. XX asrning 50-yillaridan so’ng Muqimiy hayotini va ijodiga munosabatlarni, sho’ro davri muqimiyshunosligida shoir ijodi turli xil bahs-munozaralarga sabab bo’lganini aytib o’tadi. Ammo bularning barchasida Muqimiy ijodi sho’ro davri mafkurasiga ko’ra biryoqlama talqin etilgani, Professor G.Karimovning 1962-yili yoqlangan “O’zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi muqimiyshunoslikda alohida o’rin tutishini, istiqloq yillarida ham Muqimiy ijodiy merosi ustida ilmiy izlanishlar olib borilgani. Ayniqsa, shoir asarlarining sovet davridagi nashrlariga kiritilmagan ayrim she’rlar keng jamoatchilik e’tiboriga havola etilgani, bu jihatdan Q.Pardaev “Muqimiy she’riyati: matn tarixi, tahriri va talqini” mavzusidagi monografiyasining nashr etilishi kabi masalalar haqida tushuntirib o’tadi.

(Shu o’rinda Muqimiy ijodining o’rganilishiga tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Mashg’ulotda o’qituvchi Didaktik o’yin texnologiyasi (Matbuot konferensi-yasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o’qituvchining kirish so’z bilan ochiladi. U kirish so’zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Muqimiy hayoti va ijodini o’rganishning muhim jihatlarini yoritish, muqimiyshunos olimlar asarlarini tahlil qilish, Muqimiy adabiy merosining keng targ’ib etilishi va o’rganilishi masalalariga bag’ishlanishi, konferensiyada faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san’at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumkin:

1. Muqimiy ijodining o‘rganilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoir asarlarining joriy nashrlardagi asarlar to‘plami qay holatda
3. Mustaqillik davri muqimiyshunosligi haqida o‘z mulohazangizni bildirsangiz?

Qo‘llash: tarixiy haqiqatni to‘g‘ri anglab yetishda, Muqimiy faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Milliy matbuot” fanlarining tegishli mavzulariga qo‘llash mumkin.

Natija: Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy hayoti va ijodining o‘rganilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi. Muqimiy hayoti va ijodini o‘rganishning maqsad va mohiyatidan hamda mamlakatimizda san‘at va adabiyot sohasida amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlaridan xabardor bo‘ladi. Talabada Muqimiy ijodining o‘rganilishiga doir ma‘lumotlarni o‘rganish asosida shoir ijodi haqida ko‘nikma paydo bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, adabiy muhit, milliy uyg‘onish adabiyoti, Turkiston, ma‘rifat, madaniyat, istiqloq, sayohat, adabiy davra, muqimiyshunoslik, Qo‘qon, satira.

Ikkinchi mashg‘ulot: Muqimiyning hayot yo‘li.

O‘tkazish shakli: ma‘ruza.

O‘qituvchi Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy 1850-yilda Qo‘qonda Bekvachcha mahallasida tug‘ilgani. Otasi 1836 yilda Qo‘qqonga ko‘chib borib o‘rnashib qolgan toshkentlik Mirzaxo‘ja Mirfozil bo‘lib, asli kasbi novvoychilik bo‘lgani. Onasi Bibioysha asli xo‘jandlik bo‘lgani. Muqimiyning bolalik va tahsil yillarini, Muqimiy oilaviy sharoiti, ijodkorning davlat idoralaridagi ishlari. Muqimiyning Toshkent safari singari ma‘lumotlarni yoritib beradi.

Muqimiyning Toshkentdagi faoliyat, u yerda shoirlar bilan tanishishi, ular bilan hamkorligi, davr voqealariga munosabatini misollar bilan tushuntirib beriladi.

(Shu o'rinda Muqimiy hayoti yo'liga tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar uch guruhga bo'linib, 1-guruh pedagog, 2-guruh ta'lim oluvchi, 3-guruh esa kuzatuvchi mansub vakillar sifatida ishtirok etishadi. Mashg'ulot davomida olingan tushunchalar asosida Muqimiy bolalik yillari, oilaviy muhiti, shoir ijodining ilk bosqichlari xususida fikr yuritishadi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

Qo'llash: adabiyotchi, san'atshunos, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

Natija: Muqimiy hayoti, madrasa tahsili, davlat idoralaridagi xizmati, Toshkentdagi faoliyatini tushunib yetadilar.

Tayanch iboralar: Muqimiy, oilaviy muhit, madrasa, Turkiston, ijodiy kamolat, madaniyat, istiqloq, sayohat, adabiy davra, Qo'qon, satira.

Uchinchi mashg'ulot: Muqimiy ijodiy merosi.

O'tkazish shakli: ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni Muqimiy ijodiy merosi 11 ming misraga yaqinligi. Ular asosan lirika va hajviyotdan iborat ekanligi, Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi bo'lganligi, ko'plab zamondoshlari singari o'zbek va tojik tilida baravar she'rlar yoza olgani haqida ma'lumotlar beradi. Muqimiy ijodiy merosining: Lirika (g'azal, muxammas, murabba', masnaviy, ruboiy, fard). Hajviyot (satira, yumor).

Sayohatnomalar (uch qismdan iborat). Maktublar (sheriyy va nasriy shaklda). – tarzida tavsiflanishi. Shoirning "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning

aytkon she'ridur", "Bachchag'ar" radifli satirasi, "Sayohatnoma"lar mustaqillik mafkurasi tamoyillari asosida yangicha talqin etilishi zarurligi tushuntirib beriladi.

(Shu o'rinda Muqimiy ijodiy merosi mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

O'qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Muqimiy ijodiy merosining badiiy-g'oyaviy xususiyati? savoli bo'yicha quyida fikrlaringizni bayon eting?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o'zlari yozgan fikrlarini o'qib himoya qilishlari so'raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o'rgatadi. O'qituvchi esa ularning fikrlarini to'g'ri yo'naltirish orqali mavzuni to'g'ri anglashlariga harakat qiladi.

Qo'llash: adabiyotshunos, jurnalist, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg'ulot olib boriladi.

Natija: yoshlarda Muqimiy adabiy merosining janrlari, mavzu ko'lami va badiiy-g'oyaviy xususiyati haqida tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Shoir lirikasida ishq talqini, hajviy she'rlarida ijtimoiy-siyosiy voqealar tasviri, Muqimiyning 18 ta nasriy va 9 ta she'riy maktubi borligi haqida bilimlar paydo bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, lirika, maktub, satira, “Sayohatnoma”, adabiyot, muxammas, she’r, davr, hamkorlik.

To’rtinchi mashg’ulot: Muqimiy ijodi manbalari.
O’tkazish shakli: ma’ruza.

O’qituvchi talabalarni Muqimiy adabiy merosi manbalari, ularning saqlanish joylari. Shoir adabiy merosi uchraydigan 39 ta qo’lyozma, 14 ta toshbosma majmua va bayozlar, uchta arxivdagi, bitta vaqtli matbuot, bitta to’plam hamda Po’latjon Qayyumov asarlaridagi materiallar qiyosiy tahlil qilinishi. Ular orasidan shoirning 5 ta dastxat bayozi va shoir dastxati uchraydigan uchta qo’lyozma majmuuga doir ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Mazkur manbalardan Muqimiyning hanuzgacha ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo’lmagan 13 ta g’azal, 3 ta muxammas janridagi she’rlari (194 misra) aniqlangani, jumladan, Muqimiyning 7521 raqamli dastxat bayozida 228 ta sheriy asardan 208 tasi Muqimiy qalamiga mansub bo’lib, shundan, 154 ta g’azal (9 tasi yangi), 36 muxammas (1 tasi yangi, 4 ta hajviy), 8 murabba’, 4 ta’rix, 1 ta masnavviy, 4 she’riy maktub va “Sayohatnoma” asarining “Qo’qondan Isfaraga” qismi berilganligi haqida fikr-mulohaza bildiriladi.

(Shu o’rinda Muqimiy ijodi manbalari mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi)

Interfaol metod

Yoshlar 2 guruhga bo’linadilar. 1-guruh Muqimiy ijodining qo’lyozma manbalari tasnifi va tahlili, 2-guruh shoir adabiy merosining toshbosma manbalarini tahlil etadi. Mashg’ulot jarayonida olingan tushuncha va ma’lumotlar asosida to’g’ri va notog’ri fikrlash holatlari ko’rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag’batlantiriladi.

Qo’llash: adabiyotchi, jurnalist, tarixchi mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg’ulot olib boriladi.

Natija: talabalar Muqimiy adabiy merosi manbalari tasnifi va tahlili, manbalardagi she'riy asarlar janri va mavzu ko'lami, she'riy asarlar matni masalasiga doir masalalardan xabardor bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, manba, tasnif, qo'lyozma, "Sayohatnoma", adabiyot, muxammas, she'r, davr, hamkorlik.

MULOQOTLAR

Birinci mashg'ulot: Muqimiy muvashshahlari.

O'tkazish shakli: muloqot.

Muvashshah haqida nazariy ma'lumot berish. Shoirning muvashshah – g'azallari muqimiyshunoslikda deyarli o'rganilmagani, shu bois ularni o'rganish Muqimiy adabiy-estetik olamini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Muqimiy ijodiy merosida 75 ta muvashshah-g'azal mavjudligi aniqlangani. Muqimiyning "Sog'inib" radifli "Mehri ruxsoringg'a, jono, zordurman sog'inib", "Mehri ruxsoring ko'rarga zordurmiz sog'inib" kabi g'azallari adabiyot ahliga ma'lumligi. Shoirning jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan xuddi shu radifdagi "Orazu xoling ko'rarga zordurman sog'inib" deb boshlanuvchi 7 baytli g'azali Oysoxon nomiga bitilgan muvashshah ekanligi. Bu muvashshah-g'azalda har baytning toq misrasidagi Oysoxon ismiga ishora qilingan harflar yig'indisi. Shu kabi shoirning muvashshah – g'azallari tahlil qilinadi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoga. Muqimiy muvashshah-g'azallarida kishi ismi qanday qayd etilgan?

2-jamoga. Shoir muvashshah-g'azallarida qayd etilgan shaxslar Muqimiyga qanday aloqadorligi bor?

3-jamoga. Shoir muvashshah-g'azallari asosan qanday janrlar tarkibida uchraydi va ularning Adabiyot tarixini o'rganishdagi ahamiyati qanday?

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalistlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: Shoir muvashshah - g'azallari. Muvashshahlarda kishi ismlarining berilishi. Muqimiyning adabiy davrasini, yaqin do'stlari kimlar bo'lganini o'rganishda muvashshah-g'azallar katta ahamiyatga egaligi. Shoir muvashshah-larida ismi keltirilgan shaxslar Muqimiy hayotida alohida o'rin tutgani. Bu kishilar ismi Furqat, Zavqiy, Muhyi va Haziniy muvashshah-g'azallarida ham ko'p uchrashi kabi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, muvashshah - g'azallar, shoir do'stlari, janrlar, adabiyot, muxammas, she'r, davr, hamkorlik.

Ikkinchi mashg'ulot: Muqimiy ta'rixlari.

O'tkazish shakli: muloqot.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari ijodidagi ta‘rixlar ham muayyan darajada davr tarixiy voqyealariga oydinlik kiritishi bilan qimmatliligi. Muqimiy adabiy merosidagi ta‘rixlar muhim ahamiyatga molik ekanligi. Shoirning turli xil voqyealarga bag‘ishlab yozilgan ta‘rixlarini quyidagicha: “kishilar vafoti munosabati bilan yozilgan ta‘rixlar”; “bino va imoratlar qurilishiga bag‘ishlangan ta‘rixlar”; “ijtimoiy-siyosiy voqyealarga doir ta‘rixlar” tarzda guruhlashtirish mumkinligi. Jumladan, *Bino va imoratlar qurilishiga bag‘ishlangan ta‘rixlar*. Toshkent shahrining Darxon mahallasida istiqomat qilgan Mirzo Ubaydullaboy degan kishi bir g‘ishtlik masjid qurib, unga Muqimiydan ta‘rix yozib berishni iltimos qilgani. She‘rning to‘rtinchi misrasida keluvchi “Ibodatxonai oliy” jumlasida ta‘rix moddasi bo‘lib, undan abjad hisobida 1318 hijriy sanasi kelib chiqishi. Uni milodiy hisobga aylantirsak, 1900-yil hosil bo‘lishi. Xuddi shunday Muqimiyning ko‘plab ta‘rixlari xususida tahliliy fikrlar bayon etiladi.

Interfaol metod

Mazkur mashg‘ulotda o‘qituvchi Didaktik o‘yin texnologiyasi (Matbuot konferensiyasi)dan foydalanadi. Matbuot konferensiyasi darsi o‘qituvchining kirish so‘z bilan ochiladi. U kirish so‘zida darsning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi matbuot konferensiyasi Muqimiy ijodidagi ta‘rixlar, ularda tarixiy voqealar tasviri, shoir ijodida ta‘rix janrining tutgan o‘rni haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Konferensiyada adabiyotshunoslar, faylasuf-jamiyatshunos olimlar, san‘at va davlat arboblari, soha mutaxassislari, shuningdek, respublikamiz ommaviy axborot vositalarining muhbirlari ishtirok etayotganligini qayd etadi.

“Matbuot konferensiyasi”da muhbirlarning rolini bajarayotgan talabalar olimlarga quyidagi savollar bilan murojaat etishlari mumki:

1. Ta‘rix janri haqida ma‘lumot bering?

2. Muqimiy ta'rixlarining mavzu ko'lemi haqida fikr bildiring?

3. Shoir ta'rixlarining bugungi kundagi ahamiyati qanday?

Qo'llash: tarixiy haqiqatni to'g'ri anglab yetishda, Muqimiy ta'rixlarining o'ziga xos jihatlarini belgilab olishda hamda "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Tarix" fanlarining tegishli mavzulariga qo'llash mumkin.

Natija: Muqimiy ijodidagi ta'rixlarning mavzu ko'lemi haqida, ta'rix janrining o'ziga xos xususiyatlari, Muqimiy ta'rixlari tasnifi va tahlili asosida ularda davr voqe'lari tasviri haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, manba, tasnif, qo'lyozma, "Sayohatnoma", adabiyot, muxammas, she'r, davr, hamkorlik.

MUNOZARALAR

Birinchi mashg'ulot: Muqimiy maktublari.

O'tkazish shakli: munozara.

Muqimiyning 18 ta nasriy va 9 she'riy maktubi mavjudligi. Muqimiyning she'riy va nasriy yozishmalari. Muqimiy ijodini o'rganishda shoir maktublari ham alohida ahamiyat kasb etishi. Ularda davr ziddiyatining, shoir ruhiyatining aks etishi. Ular o'z davri ijtimoiy masalalarini aks ettirgan asarlar ekanligi. Muqimiyning yangi aniqlangan maktublari tahlili. Maktublarda tilga olingan Zuhur hoji, Sayyid Usmon qozi, Abdumo'min, Abdujabbor, Azimjon, Mirza Umar, Mirsalim singari kishilar Muqimiyning do'stlari va yaqin kishilari bo'lgani. Bular ismi shoirning boshqa asarlarida ham ko'p uchrashi to'g'risida ma'lumot berib boriladi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Munozarali dars" metodi asosida o'tkaziladi. Mashg'ulot o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi. O'qituvchining kirish so'zi tugagandan so'ng "Munozarali dars"ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.

2. Jamoa o'ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma'noni anglatishi kerak)

3. Har bir jamoa o'zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo'shimchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.

4. Baholashda jamoa a'zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta'kidlanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo'shimcha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalarga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Muqimiyning she'riy maktublari haqida fikr bildiring?

2-jamoaga. Shoirning nasriy maktublari kimlarga yozilgan?

3-jamoaga. Muqimiyning kishilar vafotiga bag'ishlangan ta'rixlari haqida ma'lumot bering ?

Qo'llash: mashg'ulot tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: maktublarda shoir ruhiyatining aks etishi. Maktublarning badiiy-g'oyaviy xususiyati, ularning qo'lyozmalari, saqlanish manzili, shoirning yangi aniqlangan fors-tojik tilidagi maktublari tahlili kabi bilimlarga ega bo'lishadi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, maktub, nasriy, nazmiy, do'stlari, adabiyot, muxammas, fors-tojik tili, she'r, davr.

Ikkinchi mashg'ulot: Muqimiy va Navoiy.
O'tkazish shakli: munozara.

Muqimiy yoshligidan oq Alisher Navoiy ijodini katta hurmat va muhabbat bilan o'rganishi, she'riyatidan ilhomlanib, ko'plab g'azallariga naziralar bitgani, taxmislar bog'lashi. U Navoiyning yetti g'azaliga taxmis yozib, betakror badiiyat va teran fikrlar bilan yo'g'rilgan muxammaslar yaratgani. Bular shunchaki an'ana mahsuli emas, balki Navoiy asarlari mazmun-mohiyati, poetik mukammalligi hamisha Muqimiyning rom etib kelgani, Muqimiy Navoiyning "Gul" radifli g'azaliga ergashib, oshiqona mavzuda ko'plab g'azal bitgani, Muqimiy Navoiyning hajviy asarlaridan han ta'sirlangani kabi masalalar haqida fikrlar bildiriladi.

Interfaol metod

Mashg'ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Insert texnikasi" metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi. O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

"V" – tanish ma'lumot.

"?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

"Q" – bu ma'lumot men uchun yangilik.

"-" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati

to' liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Natija: Muqimiy Navoiyning "Yondurub olamni, chiq, ey, otashinruxsor gul"- misrasi bilan boshlanuvchi o'n baytli, "Bo'ldi gul" radifli g'azallariga bog'langan muxammaslari tahlili. Muqimiy hajviy asarlarida ham Navoiy poetik an'analaridan mahorat bilan foydalangani, masalan, Navoiyning "Hayratu-l-abror" dostoni bilan Muqimiyning "Tanobchilar" hajviyasi qiyosiy tahlili kabi bilimlarga ega bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, hajviya, satira, nazira, taxmis, adabiyot, muxammas, she'r, davr.

TAQDIMOTLAR

Birinchi mashg'ulot: Muqimiy "Sayohatnoma"lari
O'tkazish shakli: taqdimot.

Taqdimotda O'zbek she'riyatida sayohatnoma janrining shakllanishi Muqimiy ijodi bilan bog'liq, deb talqin etilishi. Bir xil ruh, bir xil tematika va mushtarak badiiy xususiyatlar bilan xarakterlanadigan sayohatnoma janriga Muqimiy asos solgani, sayohatnomalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: a) ular to'rtliklar sistemasida, o'ziga xos qofiya usulida (a-a-a-s, b-b-b-s, v-v-v-s kabi) yozilgan; b) har bandining oxirgi - to'rtinchi misrasida "ekan" so'zi radif o'rnida kelgan; v) aruzning rajazi musammani solim (mustafilun, mustafilun, mustafilun, mustafilun) vaznida bitilgani. Muqimiy Farg'ona vodiysi bo'ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she'r qilib yozdi va bular "Sayohatnoma" nomi bilan shuhrat topgani. Bular shoirning Qo'qon - Farg'ona, Qo'qon - Shohimardon, Qo'qon-Isfara sayohatlari taassurotlari ekanligi. "Sayohatnoma"lar jami: 77 band, 308 misra ekanligi asoslab beriladi.

Qo'llash: mashg'ulot pedagog, tarixchi, adabiyotshunos, jurnalist, ma'naviyat targ'ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

Natija: "Sayohatnoma"larning taxminan 1890 yil atroflarida yozilgani hisobga olinsa, uning qanday og'ir sharoitda yaratilgani. Muallif kayfiyati, holati, atrof-muhitga, kishilarga munosabati "Sayohatnoma" satrlarida ayon sezilib turishi. Masalan, shoir Shohimardon tomon yo'l olar ekan, Ultarma, Do'rmoncha, Bo'rbaliq, Oq yer, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, Chimyon, Vodil qishloqlari bilan tanishtirishi, ularning har birini ta'rif-tavsif etgani, amaldorlarning fel-atvorining tasvirlanishi kabi bilimlarga ega bo'ladilar.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, "Sayohatnoma", amaldorlar, tasvirlash, bandlar, adabiyot, muxammas, joy nomlari, she'r, davr.

Ikkinchi mashg'ulot: Muqimiy hajviyalari
O'tkazish shakli: taqdimot.

XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomirotgan takabbur, poraxo'r tanobchilarning, tovlamachi, yulg'ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratishi. U o'z she'rlaridan birini "Tanobchilar" deb atashi. Chor hukumati Turkistonda saylovni joriy etgani. Yuzboshi, mingboshi, qozilarning saylanishi. Lekin bu saylov poraxo'rlikka yo'l ochgani. Badavlat kishilarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketishi. Muqimiyning "Saylov" she'ri shu haqda ekanligi. "To'yi Iqonbachcha" hajviyasida bir to'y hangomasining tasvirlanishi, sho'rolar davrida Muqimiyning "Bachchag'ar" radifli satirasiga "Hajvi Xalifai Mingtepa" deb sarlavha qo'yilib, o'z mohiyatidan uzoqlashtirilishi. Hajviy she'rni Dukchi eshon voqyeasiga bog'lab talqin etilgani. Qo'lyozma manbalar tadqiqidan ma'lum bo'ladiki, she'r Dukchi eshon voqyeasidan o'n yil oldin Hazrat madrasasining mutavallisi Muhammad Musoboyga bag'ishlab yozilgani. Bu esa, o'z navbatida, mavjud talqinlarning xato va biryoqlama

bo'lganini ko'rsatishi. Ijodkorning “Qurbaqalar”, “Hajvi Bektur” hajviy asarlari matni tahrir qilinib, joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan bandlari qayta tiklanishi singari masalalar asoslab beriladi.

Qo'llash: badiiy tahlil asoslari, o'zbek adabiyot tarixi, matnshunoslik va tarix fanlarining amaliy mashg'ulotlarida qo'llash mumkin.

Natija: Muqimiy hajviy asarlarining badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini, tarixiy sharoitda tomirotgan takabbur, poraxo'r tanobchilarning, tovlamachi, yulg'ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratishi kabi masalalarni anglab yetadi.

Tayanch tushunchalar: Muqimiy, satira, amaldorlar, yumor, bandlar, adabiyot, muxammas, saylov, she'r, davr.

IX. O'QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO'YXATI

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Pardayev Q. Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. (Monografiya). –T.: Muharrir, 2019.-B. 220.

2. Karimov G'. Muqimiy hayoti va ijodi. (Monografiya). – T.: Adabiyot va san'at, 1970. -B. 213.

3. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti darsligi. (B.Qosimov, U.Dolimov, Sh.Yusupov, S.Ahmedov, N.Jabborov, Sh.Rizaev). – T.: Ma'naviyat, 2004. -B.458.

4. Muqimiy. Asarlar to'plami. (Nashrga tayyorlovchi: G'.Karimov). – T.: O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, I tom, 1960.-B. 375.

5. Muqimiy. Asarlar to'plami. (Nashrga tayyorlovchi: G'.Karimov). – T.: O'zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, II tom, 1960.-B. 192.

6. Biz bilmagan Muqimiy. (Yangi aniqlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: Pardayev Q). –T.: Muharrir, 2019. -B. 136.

7. Muqimiy. Bog' Aro. Tanlangan asarlar. (Nashrga tayyorlovchi: A. Turdialiev). T.: Akademnashr, 2010. -B. 312.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abdug'afurov A. Muqimiy satirasi. – T.: Fan, 1976. -B. 120.

2. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. – T.: O'qituvchi, 1987. -B. 482

3. Mo'minov I. O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixidan. – T.: O'z FA, 1960. -B.289.

4. Furqat va Muqimiy haqida maqolalar (To'plovchi G'.Karimov). T.: Badiiy adabiyot, 1958.-B. 151.

5. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. Uch jildlik. – T.: Qo'lyozmalar instituti, 1998. -B. 560.

6. Qayyumov P. Xo'qand tarixi va uning adabiyoti. – T.: Tamadun, 2011; Xo'qand tarixi va uning adabiyoti. T.: Tamadun, 2011. -B. 389.

7. Qayyumov A. Qo'qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – T.: O'zFA nashriyoti, 1961. -B. 562.

8. Qayyumov A. She'riyat jilolari. – T.: O'qituvchi, 1997. -B. 125.

9. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – T.: Ma'naviyat, 2002. -B. 397.

10. Yoqubov H. O'zbek demokrat shoiri Muqimiy. – T.: O'zFan, 1953. -B. 134.

Elektron resurslar

1. [www.alisher navoiy.uz](http://www.alishernavoiy.uz)

2. www.ziyo-net.uz

3. www.literature.uz

4. www.kutubxona.uz

5. www.qr.natlib.uz

6. www.media.natlib.uz

7. www.uznetlib.uz

Muhammad Aminxo'ja

Muqimiy

HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BO'YICHA
Dastur va uslubiy qo'llanma

“IQTISODIYOT” – 2021

Mas'ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov,

Muharrir:
H.T. Yaxshiyev

Musahhih:
A.O. Matxo'jayev

Litsenziya raqami: №10-4286 14.02.2019. Bosishga 20.08.2021da ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16}. Ofset qog'ozi. «Droid Serif» garniturası. Shartli bosma tabog'i:3,0. Adadi 50 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«ZARAFSHON FOTO» XK matbaa bo'limida chop etildi.
100066. Toshkent sh. Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.